

ASRLAR G'AMIGA GUVOH TEPALAR

Toshmurodova Charos Rustamjonovna

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya o'qitish metodikasi yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Anontatsiya: Ushbu maqolada tarixiy asrlar davomida paydo bo'lib, shakllanib, taraqqiy etib borgan hamda iqtisodiy-ijtimoiy va tabiy geografik o'zgarishlar natijasida bugungi qiyofaga kelgan shuningdek hozirda 2000 yildan oshiqroq tarixga ega ammo xalqimiz bilmaydigan ko'rmangan go'shalarni tanitish hamda uning o'z davrida qo'llangan vazifalari haqida shu bilan birgalikda xalq tilidan olingan rivoyatlar haqida qisqacha so'z boradi.

Kalit so'z: Zarafshon, Dabusiya, Buyuk Ipak Yo'li, Z.M.Bobur, Shayboniyxon, Maqbara, Buxoro amirligi, Primqul Qodirov, Miyonqol.

Vatanimz tarixiy obidalarga boyligi, bu obidalarimiz tariximizning ulug'vorligi va ajdodlarimizning yuksak aql-zakovat egasi ekanligidan dalolat beradi. Yurtimizda ajdodlarimizdan qolgan juda ko'plab tarixiy obida va yodigorliklar mavjud.Ular O'zbekiston tarixining turli davrlarida yashab o'tgan ulug' kishilar podsholar va vatan qahramonlari, ilm egalariga atab bunyod etilgan. Bu minoralar ming – ming yillik tariximizdan so'zlab, guvoh bo'lib turibdi.

Manashunday ko'p yillik tarixga ega qadamjolardan biri Samarqand viloyatining g'arbiy qismida Paxtachi tumani Zarafshon daryosi o'rta oqimida joylashgan Dabussiya qishlog'i hisoblanadi.Tuman viloyatning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, uning tabiatni nihoyatda go'zal va so'lim go'shalarining ko'pligi bilan ajralib turadi.

"Zarafshon tizmasining davomi bo'lgan Zirabuloq va Ziyovuddin tog'lari tuman hududini ikki qismga – sug'orilmaydigan keng Qarnob cho'liga va shimol tomonidan – Zarafshon vodiysining sug'oriladigan chap sohili tekisligiga ajralib turadi.Tumanning

shimoliy qismidan (sharqdan g'arbga tomon)Zarafshon daryosi oqib o'tadi.Uning o'zani past bo'lganligi sababli suv chiqishi qiyin shu sababli aholi ekinlar uchun suvni Narpay kanalidan oladi."[1].

Tumanimiz hududiy jihatdan uncha katta bo'lmasa ham ammo unda yashovchi aholining bag'ri keng mehmono'st hamda sahovatli mehnatkash xalqligi bilan ajralib turadi.Paxtachi tumanida ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan ko'plab obidalar tarixiy maskanlar mavjud.Bu hududda qadimda odamlar Zarafshon daryosi sohillariga ko'chib kelib usha yerlarda yashay boshlaydilar,hamda usha hududlarda chorvachilik va dehqonchilik shakllanadi.Zarafshon daryosining suvining ko'pligi tufayli usha davrlarda



Amudaryoga borib quyilgan.Daryo o'zanida suvning to'lib oqishi toshqinlar natijasida oldingi davrlarda Narpay kanali vujudga kelgan.

Dabus – “Temir qo'rg'on” ma'nosini bildiradi,shahar mustahkam qurilganligi sababli shu nom bilan atalgan. Zarafshon daryosi bo'yidagi bu qadimiy muqaddas yerni bilganlar eozlab “Avliyo Ota” deyishadi.”Dabussiya qadimda Dabusiy,Dabusiya qal'asi,Dabus,Qal'ai Dabus,Daxbus qal'a,Dabus qal'a nomi bilan atalgan.”[2].



“Dabusiy qal'asi keng hududni qamrab olgan,rabot qariyib 70 gektarni, shaxriston esa 22 – 23 gektarni tashkil etgan.Buyuk ipak yo'lidagi shahar Zarafshon daryosidan 30 metr balandlikda joylashgan. Bu shaharning vujudga kelishi miloddan avvalgi III asrning boshlariga borib taqaladi.U 2 ming 300 yildan ortiq tarixga ega.Bu hudud 19-asrning boshlaridan Ziyovuddin nomi bilan atalgan “[3].

Dabussiya hududidan qadimda Buyuk ipak yo'li o'tgan bo'lib aholi turmush tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.Dabussiya qadimda katta hududlarni egallagan bo'lib uning asosiy to'rt darvozasi bo'lgan.Inqilob to'ntarilishidan oldin Paxtachining markazi Ziyovuddinbekligning qarorgohi Dabusiy shahrida bo'lgan.

“Arablar istilosiga qadar dabusiy qal'asi Fay (Pay) saltanatining poytaxti bo'lgan. VI asrlarda Miyonqoldagi hukumatning poytaxti bo'lgan uning hukmdori Dabusshox deb atalgan.”[3].

Zarafshon daryosining chap sohilida Dabussiya joylashgan bo'lib yillar davomida qal'a vayron bo'lib xarobaga aylangan.Qadimda butun olamga mashhur bo'lgan shahardan yolg'iz yodigorlik tarixiy maskanlaridan biri Imom Baxra ota maqbarasi qolgan.

Maqbara (arabcha-marqad, turbat) biror mayitning jasadi joylashgan inshoot bo'lib sharqda asosan qabr ustiga tosh quyish yoki inshoot qurish man etilga IX asrdan boshlab asosan xalifalar va etiborli shaxslar qabrlariga atab maqbaralar qurila boshlangan.

Maqbaraning to'rt tomonida to'rtta eshik bo'lib maqbarning gumbaz qismiga otning yoli osilgan.Bu ramz dahada yotgan mayitning qaysi qabilaga urug'ga tegishli ekanligidan dalolat beradi.Qurilish jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan maqbara binosi VI asrlarning oxirida bunyod etilgan.Dabusiy shahrida bir necha masjidlar bo'lgan.O'tmishda ko'plab fozil kishilar shu shahardan yetishib chiqib dunyoga mashhur bo'lgan.



Bugungi kunda Dabusiy qalasining darvozalaridan biri bo'lgan Ziyovuddin masjidining paxsa devoridan qilingan janubiy darvoza qismining qoldiqlari saqlanib qolgan.Hozirgi arxiologik kuzatish natijalarida bu hududdan ko'plab tuproq ostida qolgan shahar qoldiqlari hamda ko'plab tarixiy buyumlar topilgan.Hozirda Imom Baxra ota maqbarasiga kirib borishda

qabristonlar joylashgan, qabristonlardan so'ng qadimda Buxoro bilan savdo yo'llarini bog'lagan va hozirda tuproq ostida bo'lgan yo'lning bir eshigi va qisman devori saqlanib qolgan usha devor ustiga laylaklar in qurgan kunlar isishi bilan asosan har bahorda bu yerda laylaklarni ko'rishimiz mumkin.Bundan tashqari Zarafshon daryosining o'ng sohilidan Xatirchi tumani hududi sohillaridan turib qaralganda Zarafshon daryosining chap sohilida qad ko'targan tepalikda hazrati Alining muborak panjalarining izini ko'rish mumkin.Bugungi kunda Zarafshon daryosining toshishi va ko'plab jarayonlar tufayli besh barmoq izi asta sekin yo'qolib faqat jimjiloq barmog'ining izi saqlanib qolgan.Bu to'g'risida ko'plab Dabussiyaga bog'liq rivoyatlar va afsonalar yuradi.

Zahriddin Muhammad Bobur (1483-1530) davrida manashu tepaliklarda Shayboniyxon bilan Bobur o'rtasida jang bo'lib o'tgan."Shayboniyxon Qalai Dabusiyda Boqi Tarxonni bosib,Buxoro ustiga boribdur."[4].

"Shayboniyxon dan norozi bo'lgan Samarqandlik temuriylar yordami bilan Bobur 1500 yilning oxirlarida qon to'kmasdan Samarqandni ishqol qiladi.Dabusiy qalasi ham usha vaqtarda Samarqandga tegishli bo'lganligi tufayli talofatsiz o'z-o'zidan Shayboniy ixtiyoridan Bobur tasarrufiga o'tadi.Usha kunlarda



qadimiy va mustahkam qalada yuz bergen voqealar to'g'risida mahoratli yozuvchi Primqul Qodirov o'z asarida hikoya qiladi."[5].

Zarafshon daryosi bo'yida Dabusiya tepaliklarining birida g'or bo'lib rivoyatlarga qaraganda bu g'orda bahaybad ilon yashaydi hamda vaqt vaqt bilan tashqariga chiqib Zarafshon daryosidan suv ichadi.G'orda yashovchi ulkan ilon ham katta hajmli hazinani qo'riqlab yotadi degan gaplar xalq orasida yuradi va usha ilonni ko'rgan kishilar shol bo'lib qolgan ekan.

Zarafshon so'zi zar daryo degan ma'noni anglatib bu daryoda ko'plab oltin foydali qazilmasi mavjud.Buxoro xonligi davrida xon Amir Olimxonning xazinasi 3 yerga yashirilgan shulardan biri zarafshon daryosi bo'yalaridagi tepaliklarga yashirilgan keyinchalik mustamlakachilik davrida SSR tomonida talab ketilgan.Dabusiya maskanida ko'plab shifobaxsh buloqlar mavjud.Bu buloqlardan turli kasalliklarda shifo topishda foydalaniadi.Yurtimizning ajralmas bir bo'lagi bo'lgan bu go'sha tabiiy geografik jihatdan ham yaxshi joylashganligi aholi turmush tarzida katta ahamiyat kasb etadi.Vatanimiz sarhadlarida Dabusiy qal'asiga o'xshagan ko'plab qadamjolar bor.Ajdodlarimiz tomonidan qoldirgan bunday beba ho me'rosni asrab avaylash biz yoshlarning vatan oldidagi vazifalarimizdan biri hisoblanadi.Vatanni sidqidildan sevish, uni ardoqlash tarix zarvaroqlarining ha bir satrlarini astoyidil o'rganish har bir imonli va etiqodli



yuragida vatan shukuhi bor kishilarning shahrfli va muqaddas burchidir.Ayni paytda inson o'zi tug'ilib o'sgan zaminning tarixini bilishi zarur.Negaki sharqda yashovchi kishilarda oilaga vatanga bo'lgan muhabbat hisi kuchli bo'lib, shajaraning yetti avlodini bilish an'anaviy odatga aylangan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

- 1.uz.m.wikipedia.org (O'zME. Birinchi jild.Toshkent,2000-yil)
- 2.Ismat Sanayev.Ziyovuddin tarixi.Sharq nashriyoti-matbaa konserning bosh tahririyati,-Toshkent:1995,232-233 b.
- 3.Ismat Sanayev.Bu kuhnna dunyo.Adolat nashriyoti,-Toshkent:1996,14-15b
- 4.Bobur."Boburnoma",2-t. 1965,114-b
5. Ismat Sanayev.Ziyovuddin tarixi.Sharq nashriyoti-matbaa konserning bosh tahririyati,-Toshkent:1995,163-b